

11-dars. Sonlarni (40 – 2) ko'rinishda ayirish



1. Javonda 40 ta to'p bor.
Jasur tokchadan ikkita to'p
oldi. Javonda nechta to'p
qoldi?



4 o'nl. – 2 birl. = 3 o'nl. 10 birl. – 2 birl. = 3 o'nl. 8 birl.



Yaxlit son dan birliklarni ayirishda **bir o'nlikdan** qarz olinadi va undan birliklar ayiriladi. O'nliklar ustiga nuqta qo'yiladi. O'nliklarni hisoblaganda ular bittaga kamaygani yodda tutiladi.



2. Misollarni yuqoridagi namuna bo'yicha yeching.

$$70 - 8$$

$$90 - 1$$

$$60 - 7$$



$$30 - 5$$



3. Ikkinchi va uchinchi sinf o'quvchilari sport muzeyiga sayohatga borishdi. Muzeyga ikkinchi sinfdan 40 nafar, uchinchi sinfdan esa ulardan 6 nafar kam o'quvchi bordi. Sayohatga jami necha nafar o'quvchi borgan?



4. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Misollarni sxema bo'yicha yozing va ularni yeching.





5. Harflar ortida yashiringan noma'lum komponentlarni toping va ularni ko'rsatilgan tartibda joylashtirib, sport turini aniqlang. Bu sport turi haqida nimalarni bilasiz?


Kamayuvchi	50	O	40	Y	80	90
Ayiriluvchi	K	34	8	26	1	K
Ayirma	3	6	E	4	X	8



6. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi muz maydonchasining bo'yi 20 metr, eni esa bo'yidan 6 metr qisqa. Maydonchaning perimetrini toping.



7. Qishki sport turlari bilan 90 nafar o'quvchi shug'ullanadi. Diagrammani o'rganing va xokkey bilan necha nafar o'quvchi shug'ullanishini ayting.



8. Rustam bilan Asad xokkey o'ynashdi. Rustam 20 ta, Asad esa undan 3 ta kam gol urdi. O'yinda jami nechta gol urildi?

9. Hisoblang.

$$\begin{array}{l} 23 + 34 \\ 18 + 21 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 12 + 45 \\ 24 + 51 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 97 - 14 \\ 80 - 8 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 90 - 3 \\ 70 - 6 \end{array}$$

